

**QORAQALPOQ, O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA YORDAMCHI
FE‘LLARNI QIYOSIY TAVSIFI****Quwanishbaeva Indira Bayrambay qizi***O‘zbekiston davlat jahon tillari**universiteti 2-kurs talabasi**E-mail: quwanishbaevaindira@gmail.com***Ilmiy rahbar: Saidov Islombek Valijon o‘g‘li***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Koreys filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek, qoraqalpoq va koreys tillaridagi yordamchi fe‘llarning leksik-grammatik hamda sintaktik xususiyatlari qiyosiy-tahliliy metod asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda ushbu tillardagi yordamchi fe‘llarning gap tarkibida harakatning bajarilish usuli (aspektual ma‘no) hamda modal ma‘nolarni ifodalashdagi roli yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijasida yordamchi fe‘llarning har bir tildagi grammatik shakllanishi va sintaktik bog‘lanish xususiyatlari aniqlanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari tizimlashtiriladi.

Kalit so‘zlar. yordamchi fe‘llar, ko‘makchi fe‘llar, agglyutinativ tillar, grammatikalashuv, qiyosiy-tipologik tahlil, koreys tili, o‘zbek tili, qoraqalpoq tili.

Abstract. This article presents a comparative and analytical study of the lexical-grammatical and syntactic characteristics of auxiliary verbs in the Uzbek, Karakalpak, and Korean languages. The research highlights the role of auxiliary verbs in these languages in expressing the manner of an action (aspectual meaning) and modal meanings within a sentence. Through comparative analysis, the grammatical formation and syntactic connection patterns of auxiliary verbs in each language are identified, and their similarities and differences are systematized.

Keywords. Auxiliary verbs, compound verbs, agglutinative languages, grammaticalization, comparative-typological analysis, Korean language, Uzbek language, Karakalpak language.

Hozirgi zamon qiyosiy tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri — genetik jihatdan turlicha, ammo tipologik jihatdan o‘xshash bo‘lgan tillarning grammatik tizimini qiyosiy tadqiq etishdir. Xususan, o‘zbek, qoraqalpoq va koreys tillarida fe‘l turkumi o‘zining serqirraligi va ma‘no nozikliklari bilan ajralib turadi. Mazkur tillarda harakatning bajarilish tarzi, uning davomiyligi yoki tugallanganligini ifodalashda yordamchi fe‘llar (auxiliary

verbs) tizimi markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillari bilan bir qatorda koreys tili yordamchi fe‘llarining (보조 동사) ham qiyosiy tahlilga tortilishi, tillararo o‘xshashliklarni aniqlash bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos lingvistik tabiatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi ushbu uch tildagi yordamchi fe‘llarning leksik-grammatik funksiyalarini aniqlash va ularning gap tarkibidagi sintaktik bog‘lanish qonuniyatlarini tizimlashtirishdan iborat." Yordamchi fe‘llar -bu o‘zi mustaqil ravishda biror harakat yoki holatni bildirmaydigan, balki gapda asosiy fe‘lga qo‘shilib, uning turli grammatik ma‘nolarini (zamon, mayl, shaxs-son va boshqalar) ifodalashga xizmat qiladigan so‘zlar hisoblanadi.

O‘zbek tilida to‘liq holda yordamchi fe‘l vazifasida keladigan fe‘llar mavjud emas. Ular o‘rni bilan mustaqil fe‘l, o‘rni bilan esa yordamchi fe‘l funksiyasida qo‘llanadi. Jumladan, boshla, yot, tur, yur, bo‘l, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, yubor, tashla, yoz va shu kabilar. Yordamchi fe‘llarning leksik-grammatik xususiyatlari deyilganda bu fe‘llarning yordamchi fe‘l vazifasida qo‘llanganda mustaqil ma‘no bildirmasligi, o‘zi birikib kelgan fe‘lning ma‘nosiga turli qo‘shimcha ma‘no berishi va yetakchi fe‘l bilan birgalikda gap bo‘lagi bo‘lib kelishi tushuniladi.

O‘zbek tilida fe‘llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ikkiga bo‘linadi

1) Mustaqil fe‘llar; So‘z yasash uchun xizmat qiladigan va bog‘lama vazifasini bajaruvchi fe‘llar: bo‘l, qil fe‘llari

2) Yordamchi fe‘llar; Fe‘llarga birikib turli qo‘shimcha manoni ifoda etuvchi yordamchi fe‘llar. Bularni boshqa fe‘ldan farqli holda, "ko‘makchi fe‘llar" dep ataymiz.

Qoraqalpoq tilidagi yordamchi fe‘llar gapdagi harakatning sifatini va mazmunini ifodalaydi. Masalan, "aytti" (fakt) va "aytip yubordi" (tezlik, kutilmaganlik) degan iboralar o‘rtasida katta ma‘noviy farq bor. Qoraqalpoq tilshunosligida ko‘makchi fe‘llar (kómekshi feyiller) tasnifi ularning grammatikalashuv darajasiga asoslanadi. Mashhur tilshunos olim E. Berdimuratovning "Házirgi qoraqalpaq ádebiy tili (1994)" nomli fundamental asariga ko‘ra, qoraqalpoq tilidagi ko‘makchi fe‘llar analitik fe‘l shakllarini hosil qilishdagi funksional va semantik vazifalariga ko‘ra guruhlanadi. Qoraqalpoq tili tizimida ko‘makchi fe‘llarning ikki xil ko‘rinishi mavjud:

1) **To‘liq grammatikalashgan (sof) ko‘makchi fe‘llar:** Buning eng yorqin misoli atir fe‘lidir. Tarixan "otish" (biror narsaga qaratilgan harakat) ma‘nosidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, hozirgi qoraqalpoq tilida u o‘zining mustaqil leksik ma‘nosini to‘liq yo‘qotgan. Berdimuratov ta‘kidlaganidek, bu fe‘l faqatgina hozirgi davomli zamon (present continuous) aspektini hosil qilish uchun grammatik vosita bo‘lib xizmat qiladi. U gapda mustaqil ravishda (asosiy fe‘l bo‘lib) kela olmaydi.

2) **Leksik-yordamchi (analitik) fe'llar:** Bu guruhga ber (bermoq), kór (ko'rmoq), shıq (chiqmoq), va qoy (qo'ymoq) kabi fe'llar kiradi. Bu fe'llar "ikkilamchi tabiat"ga ega: ular ham mustaqil leksik ma'noli asosiy fe'l, ham harakatning yakunlanganligi, urinish yoki boshqa shaxs uchun bajarilganini bildiruvchi ko'makchi fe'l vazifasini bajaradi. (Berdimuratov, 1994)[167-170-b]

Koreys tili grammatikasida yordamchi fe'llar (보조 동사 - bojo dongsa) va yordamchi sifatlar (보조 형용사 - bojo hyeong-yongsa) o'ziga xos o'rin tutadi. Dunyoga mashhur koreys tilshunos olim Ho-min Sohn o'zining "The Korean Language" asarida ushbu so'z turkumlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Yordamchi fe'llar va yordamchi sifatlar har doim asosiy fe'ldan (pon-tongsa) keyin keladi va uning ma'nosini boyitish, kuchaytirish yoki unga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladi". Koreys tilida yordamchi fe'llar tizimi agglyutinatív tillarga xos bo'lgan zanjirsimon tuzilishga ega. Ularning hosil bo'lish modeli quyidagicha:

Asosiy fe'l + Bog'lovchi qo'shimcha (-아/어, -고, -게) + Yordamchi fe'l.

Ushbu strukturada yordamchi fe'l o'zining asl lug'aviy ma'nosini yo'qotib, grammatik vazifa bajarishga o'tadi (grammatikallashuv jarayoni). Ho-min Sohn yordamchi fe'llarni tahlil qilar ekan, bitta fe'lning ham asosiy, ham yordamchi vazifada kelishini quyidagi misollar orqali isbotlaydi:

보다 / 주다 - ko'rmoq va bermoq fe'llari.

- “이 떡볶이를 한번 먹어 봐, 너무 맵지 않니 ” (bu kinoni bir ko'r, juda qiziqarli) — Bu yerda 봐 (pwa) fe'li asosiy fe'lga (aslida bu yerda ko'rmoq fe'li tushib qolgan yoki 봐 o'zi urinish ma'nosida kelmoqda) yordamchi bo'lib kelyapti. Ya'ni, "shunchaki qarash" emas, balki "shunday tajribani amalga oshirib ko'rish" ma'nosida.

- “밖을 봐, 비가 너무 많이 와” (tashqariga qara, yomg'r ko'p yog'yapdi) — Bu yerda 봐 (pwa) o'zining asl lug'aviy ma'nosida, ya'ni "ko'z bilan qarash" ma'nosida kelyapti. Bu Ho-min Sohning (3)b misoliga (Pulgogiga qara) to'liq mos keladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tillar o'rtasida gi o'xshashlik va farqlarni quyidagicha tushintirish mumkin. Koreys, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi yordamchi fe'llar tizimi o'zaro qiyoslanganda, ularning agglyutinatív tillar tabiatiga xos bo'lgan bir qator universal va o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Atalishi va sintaktik o'rni. Koreys tilida ushbu turkum "보조 동사 bojo dongsa" (yordamchi fe'l), o'zbek tilida "ko'makchi fe'l", qoraqalpoq tilida esa "kómekshi feyil" deb yuritiladi. Har uchala tilda ham ushbu fe'llar qat'iy ravishda asosiy (yetakchi) fe'ldan keyin keladi va gapda kesimning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Bog'lovchi vositalar. Fe'llarning o'zaro birikish usuli ham o'xshashdir.

- Koreys tilida asosiy fe‘l yordamchi fe‘lga -아/어, -고, yoki -게 kabi maxsus bog‘lovchilar orqali birikadi.

- O‘zbek tilida bu vazifani -ib, -a, -y ravishdosh qo‘shimchalari bajaradi.

- Qoraqalpoq tilida esa -ip, -p, -a, -e affikslari bog‘lovchi vosita bo‘lib keladi.

Bu esa tillarning strukturaviy jihatdan bir xil analitik modelga (Asosiy fe‘l + Bog‘lama + Yordamchi fe‘l) asoslanganini isbotlaydi.

Grammatikalashuv darajasi. Tillar o‘rtasidagi asosiy farq ularning grammatikalashuv (mustaqil ma‘noni yo‘qotish) darajasida ko‘rinadi. Qoraqalpoq tilida atir fe‘li kabi to‘liq grammatikalashgan, ya‘ni mustaqil lug‘aviy ma‘nosini butunlay yo‘qotgan "sof" ko‘makchi fe‘llar mavjud. Koreys tilida ham -고 싶다 ko sipta (xohlamoq) kabi faqat yordamchi vazifasida keluvchi shakllar uchraydi. O‘zbek tilida esa ko‘makchi fe‘llarning deyarli barchasi (ber, ol, chiq, ko‘r va b.) "ikki vazifali" xarakterga ega bo‘lib, ular kontekstga qarab ham mustaqil, ham yordamchi ma‘noda qo‘llaniladi.

Funksional muvofiqlik. Eng qiziqarli jihat shundaki, ayrim fe‘llar uchala tilda ham bir xil semantik vazifani bajaradi. Masalan, "ko‘rmoq" (koreyscha: poda, o‘zbekcha: ko‘rmoq, qoraqalpoqcha: kóriw) fe‘li har uchala tilda ham urinish va tajriba ma‘nosini ifodalasa;

O‘zbek tilida: Yeb ko‘r.

Qoraqalpoq tilida: Jep ko‘r.

Koreys tilida: 먹어 봐 (mogo pwa)

Harakatning boshqa shaxs manfaati uchun bajarilganini (manfaat ma‘nosini) anglatadigan fe‘li "bermoq" (chwunta / bermoq / beriw).

O‘zbek tilida: O‘qib beradi.

Qoraqalpoq tilida: Oqip beredi.

Koreys tilida: 읽어 주다 (ilkeo cwuda)

Shuningdek, yordamchi fe‘llar tizimida "imkoniyat" ma‘nosini ifodalovchi qurilmalar ham diqqatga sazovordir. Koreys tilida ushbu ma‘no -르/을 수 있다 (-l/ul su itta) imkon bor konstruksiyasi orqali ifodalansa, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida bu vazifani olmoq / aliw ko‘makchi fe‘li bajaradi. Qizig‘i shundaki, koreyscha 수 (su) usul/yo‘l so‘zi va turkiy tillardagi ol- (egallash/erishish) fe‘llari turli morfologik shakllarga ega bo‘lsa-da, semantik jihatdan harakatni bajarishga qodirlik mazmunini bir xil modellashtiradi. Bu degani, bu tillar "imkoniyat" ma‘nosini berish uchun mutlaqo boshqa-boshqa so‘z turkumlaridan foydalanyapti, lekin natija (ma‘no) bir xil chiqyapti:

- Koreyscha model: Ot (수 - imkon) + Fe‘l (있다 - bor).

- O‘zbek/Qoraqalpoqcha model: Fe‘l + Yordamchi fe‘l (olmoq/aliw).

Yana bir muhim o‘xshashlik “tayyorgarlik “ma’nosida ko‘rinadi. Koreys tilidagi –아/어 두다 (a/o tuda) qo‘ymoq/saqlamoq yordamchi fe’li harakatning natijasini kelajak uchun saqlab qo‘yishni bildiradi. Xuddi shu funksiya o‘zbek tilida qo‘ymoq, qoraqalpoq tilida esa qoyiw ko‘makchi fe’llari yordamida hosil qilinadi.

O‘zbek tilida: Tayyorlab qo‘ydim

Qoraqalpoq tilida: Tayarlap qoydim.

Koreys tilida: 준비해 뒀다/ Junbi-hae twotta

Yaponiyalik koreyitshunos olim Akio Jino koreys tili yordamchi fe’llarini tahlil qilar ekan, ularni harakatning fazoviy va vaqtinchalik chegaralarini belgilovchi vositalar deb ataydi. Uning fikricha, yordamchi fe’llar so‘zlovchining subyektiv munosabatini (masalan, afsuslanish yoki mamnunlik) ifodalashda asosiy rol o‘ynaydi. Buni koreyscha -아/어 버렸다(a/o beoryeotta) (잊어 버렸다 - unutib yubordi) va o‘zbekcha -ib yubormoq / -ib tashlamoq, qoraqalpoqchada esa –ib taslaw/ - ib jiberiw konstruksiyalari misolida ko‘rish mumkin.

O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlil natijasida koreys, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi yordamchi fe’llar tizimining funksional va semantik jihatdan yuqori darajada o‘xshashligi aniqlandi. Ho-min Sohn, E. Berdimuratov va Akio Jino kabi olimlarning nazariyalariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, yordamchi fe’llar har uchala tilda ham mustaqil lug‘aviy ma’nodan grammatik ma’noga o‘tish (grammatikalashuv) orqali harakatning nozik aspektual qirralarini ochib beradi. Tadqiqot davomida keltirilgan misollar shuni isbotladiki, koreys tilidagi yordamchi konstruksiyalar o‘zbek va qoraqalpoq tillariga so‘zma-so‘z emas, balki funksional ekvivalentlar orqali mos keladi. Xususan, koreyscha otli konstruksiyalar – 르/을 수 있다 (-l/ul su itta) turkiy tillardagi fe’lli konstruksiyalar (-a olmoq) bilan bir xil modal ma’noni modellashtiradi. Bu kabi ilmiy natijalar kelajakda qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida o‘zaro yaqin bo‘lmagan, biroq qurilishi o‘xshash tillarni tizimli o‘rganishda muhim poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatova Sevaraxon Alisherovna. (2023) “Yordamchi fe’llarni uslubiyati va leksik-grammatik xususiyatlari.” Innovative development in educational activities.
2. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. (1975). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
3. Berdimuratov, E. (1994). Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Nókis: "Bilim" nashriyoti.
4. Sohn, Ho-min. (1999). The Korean Language. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin.
6. Chino, A. (2001). Japanese/Korean Linguistics. Stanford Linguistics Association.